

Mavzu: Asr (3-sinf)

Darsning maqsadi:

a) Vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish, "Vaqt–oltindan qimmat" iborasiga amal qilishni o'rgatish.

b) O'quvchilarga vaqt o'lchov birliklari haqida ma'lumot berish, asr tushunchasi – vaqt o'lchov birligining eng kattasi ekanligini tushuntirish. d) Shu paytgacha matematika fanidan olgan bilimlarini rivojlantirish, birliklar haqidagi tushunchalarini takomillashtirish.

d) O'quvchilarni dars mobaynida kasb tanlashga qiziqtirib borish.

e) Buyuk allomalar haqida, qomusimiz–konstitutsiya haqida, uning bob, bo'lim va moddalari haqida tushunchalar berish.

Dars tipi: Ko'nikma va malakalar hosil qiluvchi, mustahkamlovchi.

Darsning uslubi: Ko'rgazmali –amaliy, munozara, tushuntirish.

Darsning jihozi: O'lchov birliklari yozilgan ko'rgazma, tarqatma materiallar, o'lchov birliklari yuzasidan tayyorlangan test kartochkalari.

Kutilayotgan natija. O'quvchilar bugungi "Asr" mavzusi haqida tushunchaga ega bo'ladilar, vaqt birliklarini to'liq o'zlashtiradilar, vaqt birliklari haqida ichida asrning eng katta birlik ekanligini, bir asr 100 yilga teng bo'lishini bilib oladilar.

1. Dars rejasi:

a) Tashkiliy qism,

b) Psixologik iqlim yaratish.

2. Asosiy qism:

a) O'tilgan mavzuni so'rash, qayta mustahkamlash uchun og'zaki savol-javob o'tkazish.

b) "Asr" tushunchasini o'quvchilarga misol va masalalar orqali tushuntirish.(733-737-misollar).

d) Mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklarini tarqatma materiallar orqali aniqlash, dars mavzusiga oid didaktik o'yin.

3. Uyga vazifa. Mavzu mustahkamlangach, bugungi yechilgan misollarga o'xshash 738-739-misollar beriladi.

Darsning bayoni:

Tashkiliy qism, psixologik iqlim yaratish. Salomlashish, davomatni olish. Matematika faniga oid shior:

"Matematika fanlar ichida shoh,

Uning sirlaridan bo'lingiz ogoh."

O'qituvchi: Bu yilimiz 2012 yil ekan. Yilimiz necha sutkadan iborat ekan?

O'quvchi: Yilimiz 365 sutkadan iborat.

O'qituvchi: Faqat 2000, 2004, 2008,... yillar 366 sutkadan iborat. Buning sababini bilasizmi?

O'quvchi: Bu yillar "Kabisa" yili deb nomlanib, fevral oyi 29 kundan iborat bo'ladi.

O'qituvchi: "Kabisa" yillari necha soniga karrali ekan?

O'quvchi: 4 ga karrali.

O'qituvchi: "Navro'z" so'zining ma'nosini bilasizmi?

- “Navro‘z” yangi kun degan ma’noni bildirib shu kuni kun bilan tun tenglashadi.

O‘qituvchi: Kun bilan tunning o‘zgarishi fasllarga bog‘liqdir. Masalan, qishda eng uzun tun va eng qisqa kun bo‘lsa, yozda esa eng uzun kun va eng qisqa tun bo‘ladi. Bir kun va bir tun bir sutka bo‘lib 24 soatdan iborat. Keling, bolalar vaqt o‘lchov birliklarini, bilganlarimizni takrorlaymiz va yangi o‘lchov birligi asr bilan tanishamiz.

1 daqiqa=60 sekund, 1 soat=60 daqiqa, 1 sutka=24 soat, 1 hafta=7 sutka. 1 oy 30 yoki 31 kunga, 1 yil 365 yoki 366 kunga, 1 asr 100 yilga teng.

733- masala (og‘zaki).785yilda necha to‘liq asr bor?

7 ta to‘liq asr, 85yil bor.

439 yilda-chi? 4 ta to‘liq asr, 39 yil bor.

901 yilda-chi? 9 ta to‘liq asr, 1 yil bor.

-O‘quvchilar, quyidagi vaqt o‘lchov birliklarini yozib oling va eslab qoling:

1 asr =100 yil

1 soat = 60 min

1 yil = 12 oy

1 min =60 sek .

1 sutka =24 soat

1 yil 366 yoki 365 sutkadan iborat.

1 oy 30 yoki 31 sutkadan iborat

Fevral oyi 28 yoki 29 sutkadan iborat .

734-masala (yozma) Minutlarda ifodalang:

4 soat =240 minut

6 soat =360 minut

8 soat =480 minut

Soatlarda ifodalang:

60 minut =1 soat

180 minut =3 soat

300 minut=5 soat

735-masala(yozma) Tushirib qoldirilgan sonlarni qo‘ying.

4 minut 21 sekund=

4 soat 16 min =

1sutka 5soat =

7 minut =

6 yil =

2 asr 18 oy=

120 oy =

736 –masala (yozma).560 so‘mga 7m gazlama xarid qilindi. Bu gazlamadan 2 ta ko‘ylak tikildi. 1-ko‘ylakka 4 m, 2-ko‘ylakka 3 m gazlama sarflandi. Har bir ko‘ylak uchun necha so‘mlik gazlama ketgan?

7 m gazlama- 560 so‘m

1 m gazlama- chi? 3 m gazlama- chi? 4 m gazlama- chi?

Yechilishi: 1) $560 : 7 = 80(\text{so‘m})$ -1 m gazlamaning narxi.

2) $80 * 3 = 240 (\text{so‘m})$ -1-ko‘ylak uchun.

3) $80 * 4 = 320 (\text{so‘m})$ -2-ko‘ylak uchun .

Mavzu yuzasidan testlar:

- 1) 1 sutka necha soat? a) 24 v) 12 d) 100
- 2) 1 soat necha minut? a) 120 v) 60 d) 24
- 3) 1 yil necha sutkadan iborat? a) 365, 366 v) 360, d) 320
- 4) 1 yil necha oydan iborat ? a) 24 v) 365 d) 12
- 5) 1 minut necha sekund? a) 60 v) 70 d) 24

737 –masala. (yozma) Kema 1-kuni 26 km, 2-kuni undan 2 marta ko‘p suzdi . Agar kema hammasi bo‘lib 91 km suzishi kerak bo‘lsa, yana necha km suzishi kerak?

1- kun – 26 km


2- kun -2 marta ko‘p. Hammasi – 91 km.

Yana necha km-?

Yechilishi:1) $26 \cdot 2 = 52$ (km) 2-kun

2) $91 - 52 = 39$ (km) qoldi.

“Kimning quyoshi ko‘p nur sochadi” o‘yini. Bu o‘yinda har bir guruhdan 3 o‘quvchi chiqib 3 ta quyosh doskaga chizilib, quyoshning har bir nuriga vaqt birliklarini yozishlari kerak. Qaysi o‘quvchi ko‘p yozsa, g‘olib bo‘ladi va



baholanadi.

Darsning yakuni, xulosa: Mavzu mustahkamlandi, o‘quvchilar yangi vaqt birligi “asr” bilan tanishib, bu o‘lchov birligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘ldilar. Faol o‘quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa 738-739-misollar